

2024-y “26” “01” 44-iyul -sonli

“DKZ” AJ

BUYRUQ

“Jamiyat balansida bo‘sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyatga oid bo‘lmagan aktivlarni xatlovdan o‘tkazish maqsadida ishchi-guruh tuzish va ishchi-guruh vakolatlari to‘g‘risida”

Jamiyat balansida bo‘sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyatga oid bo‘lmagan aktivlarni xatlovdan o‘tkazish maqsadida hamda “O‘zkimyosanoat” AJning 2024-yil 23-yanvardagi 06-224-son topshirig‘iga asosan

BUYURAMAN:

1). Jamiyat balansida bo‘sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyatga oid bo‘lmagan aktivlarni xatlovdan o‘tkazish maqsadida quyidagi tarkibda ishchi guruh tuzilsin:

Ishchi guruh raisi:

U.Isayev -Iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha boshqaruv raisi o‘rinbosari

Ishchi guruh a‘zolari:

A.Ostonaqulov - Kontrakt majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i;
H.Berdiyev - Marketing va sotish boshqarmasi boshlig‘i;
A.Umarov - Yuridik bo‘limi boshlig‘i;
S.Boqiyev - Korporativ munosabatlar bo‘limi boshlig‘i

2). Ishchi guruh a‘zolariga:

Jamiyat balansida bo‘sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyatga oid bo‘lmagan aktivlar o‘rnatilgan tartibda xatlovdan o‘tkazilsin hamda natijasi yuzasidan takliflar kiritilsin.

3). Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimnamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi v.b



T.Zaripov

Dehqonobod kaliy zavodi AJ ning 2024-yil "26"-yanvardagi "44- ICh" buyrug'iga asosan tuzilgan "Ishchi-guruh"ning "Jamiyat balansida bo'sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyatga oid bo'lmagan aktivlarni xatlovdan o'tkazilganligi to'g'risida"gi

Xulosasi

"Ishchi-guruh" tomonidan 2024-yilning "29"-yanvarida o'tkazilgan xatlov natijasida "DKZ" AJ hisobidagi quyidagi bo'sh turgan yer maydoni aniqlandi:


Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son Farmoni, 2022-yil 18-martdagi 168-son Qarori va "O'z kimyosanoat" AJning 2022-yil 14-fevraldagi 20-son buyruqlari ijrolarini ta'minlash maqsadida, Surxondaryo viloyati "Agrokimyohimoya" HAJ Jarqo'rg'on filialidagi mineral o'g'itlarni saqlash ombori va yordamchi bino-inshootlarini "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ balansiga o'tkazish to'g'risida 2022-yil 28-aprelda jamiyatning 266-i/ch-son buyrug'i chiqarilgan.

Shunga ko'ra, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, "Yangiobod" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan yer uchastka maydoni 9 450 kv.m, qurilish maydoni 2101,49 kv.m bo'lgan mineral o'g'itlar saqlash ombori va yordamchi bino-inshootlari bo'yicha 2022-yil 14-aperlda DRR-594/51-22-son ko'chmas mulkni oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirilib, topshirish qabul qilish dalolatnomalari tuzilgan. Ushbu ob'yekt hozirda bo'sh turganligi aniqlandi.

Taklif: Mazkur mineral o'g'itlar saqlash ombori va yordamchi bino-inshootlarini sotish va jamiyat balansidan chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Izoh: Ushbu xulosa 2024-yilning "29"-yanvar kuni o'rganish natijasiga asosan yozildi va imzolandi.

Iqtisodiyot va moliya masalalari
bo'yicha boshqaruv raisi o'rinbosari



U. Isayev

Yuridik bo'lim boshlig'i:



A. Umarov

Kontrakt majburiyatlarini bajarilishini
nazorat qilish bo'limi boshlig'i:



A. Ostonaqulov

Marketing va sotish boshqarmasi boshlig'i:



H. Berdiyev

Korporativ munosabatlar
bo'limi boshlig'i:



S. Boqiyev



“DKZ” AJ boshqaruv raisi v, b

F. Zaripov

Obyekt pasporti

Obyektning pasporti	
Obyektning nomi	mineral o'g'itlar saqlash ombori
Yuridik manzili	Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, "Yangiobod" mahalla fuqarolar yig'ini Xavdaq kuchasi, 19b-uy
Balansda saqlovchi	"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ
Yuqori turuvchi	"O'zkimyosanoat" AJ
Soha	O'git saqlash ombori
Obyektning qurilgan vaqti	01.01.1984 y
Balans (qoldiq) qiymati (ming so'mda)	5 559 026 309,17
Baholangan qiymati (ming so'mda) <i>(baholash hisoboti mavjud bo'lganda)</i>	4 995 117
Umumiy yer maydoni (ga)	0,82
Shundan, bino va inshootlar egallagan maydoni (kv.m.)	6259
Ijaraga beriladigan yer maydoni (kv.m.)	6259
Obyektning texnik xarakteristikasi <i>(G'ishtidan yoki betondan qurilgan)</i>	Xom g'isht
Kommunikatsiya tarmog'iga ulanganlik holati (obyektдан uzoqligi)	
- Suv ta'minoti	Yo'q
- Issiqlik tarmog'i	Yo'q
- Gaz ta'minoti	Yo'q
- Elektr energiya	Bor
- Temiryo'l tarmog'i	Bor
Aholi punktidan uzoqligi	Yaqin
Obyektning holati	Yaroqli
Obyektдан samarali foydalanish bo'yicha taklif	Mazkur mineral o'g'itlar saqlash ombori va yordamchi bino-inshootlarini sotish va jamiyat balansidan chiqarish maqsadga muvofiqdir.

